

TTPU va Xitoy-ShHT iqtisodiyot va savdo instituti o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi

Joriy yilning 15-iyun kuni Xitoy Xalq Respublikasining "Xitoy-ShHT iqtisodiyot va savdo instituti" (China-Sco Institute of Economy and Trade) Zheng Shi rektori boshchiligidagi delegatsiya Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida TTPU rektori O. To'ychiyev tomonidan delegatsiya a'zolariga universitet bo'ylab tur uyushtirib, universitetning o'quv va ilmiy faoliyat bilan yaqindan tanishtirildi.

Mazkur tashrif doirasida o'tkazilgan uchrashuv davomida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish, xususan, talabalar almashinuvi, mutaxassislar malakasini oshirish, talabalar uchun xitoy tili kurslarini tashkil qilish kabi turli masalalar muhokama etildi. Shuningdek, ikki rahbar o'rtasida "Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti" hududida "Xitoy-ShHT iqtisodiyot va savdo instituti" hamkorlik markazi ochilishi yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv so'ngida TTPU va CSCOIET bilan anglashuv memorandumini imzolandi. CSCOIET rahbari Zheng Shi TTPU rahbarini Xitoy-ShHT iqtisodiyot va savdo institutining faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida institutga taklif qildi.







